

**MIRZO ULUG'BEK DAVRIDA SAMARQANDDA BUNYODKORLIK ISHLARI
VA ILM FAN TARAQQIYOTI****Musulmanova Nilufar Xudayberdiyevna***Qashqadaryo viloyati, Qamashi shahri, 9-DIUM tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Temuriylar sulolasining ko'zga ko'rinadigan vakillaridan biri, tarixda o'zining astronomiya va ilm-fanga qo'shgan hissasi bilan chiqur iz qoldirgan shoh va shoir Mirzo Ulug'bek hayoti va Samarqandda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *Temuriylar, Mirzo Ulug'bek, Movarounnahr me'morchiligi, falsafa, bunyodkorlik, Shohi Zinda, V. Vyatkin.*

Buyuk olim va davlat arbobi, temuriylar sulolasining yorqin namoyandasi Mirzo Ulug'bekning nomi dunyo fani sahifalariga zarhal harflar bilan bitilgan. Uning astronomiya, matematika, geometriya, geografiya va boshqa qator fanlar rivojiga qo'shgan o'lkan hissasi, o'rta asrlarda amalga oshirgan hisob-kitoblarining aniqligi hozirgi zamon ilm ahlini hamon lol qoldirib kelmoqda.

Mirzo Ulug'bekning nomi butun dunyoga buyuk mutafakkir sifatida ma'lum. Ammo u dastlab, bobosi Amir Temurga va so'ng otasi Shohruxga turli yurishlarda hamroh bo'lgan. Movarounnahr hukmdori bo'lgach, keyinchalik o'zi ham mamlakatning turli qismlarini kezgan. Safarlari davomida ko'rganlarini o'zining ilmiy faoliyatida keng qo'llagan. Shuning uchun Ulug'bekni sayyoh-olimlar qatoriga kiritishimiz mumkin.

Mirzo Ulug'bek (to'liq ismi sharifi - Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug'bek Ko'ragon) 1394-yil 22-martda Amir Temurning harbiy yurishlari chog'ida Eron Ozarbayjonidagi Sultoniya shahrida dunyoga kelgan. Amir Temur suyukli nabirasining tarbiyasini katta rafiqasi Saroymulxonimga topshiradi va ana shundan keyingi 11 yil davomida berilgan tarbiya Mirzo Ulug'bekning buyuk inson bo'lib shakllanishida katta rol o'ynagan. 1409-yilda temurzoda Shohrux o'g'li Ulug'bekni Samarqand hokimi etib tayinlagan va 1411-yildan boshlab esa Mirzo Ulug'bek butun Movarounnahr boshqaruvini qo'lga olib, Samarqandni ilm- fan markaziga aylantirdi.

Mirzo Ulug'bek fan homiysi bo'lish bilan birga, mamlakatda ma'rifat rivojiga ham katta ahamiyat bergan allomadir. U Movarounnahrda bir emas, uch madrasa qurdirdi. Bularidan biri Samarqanda (1417-1420), ikkinchisi Buxoroda (1417) va uchinchisi Gijduvondadir (1433). Hatto, Buxorodagi madrasa peshtoqiga hadisdan olingan lavhani: «Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir», deb yozdirib qo'ygan. Tarixchilarning yozishicha, Ulug'bek kuchli xotira sohibi: geometriya, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, mantiq, musiqadan hamda Qur'on, hadis va fiqh ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lgan. Ammo Mirzo Ulug'bek hayotining asosiy qismini astronomiyaga bag'ishlagan va ushbu fanning XV asrdagi rivojida uning xizmati beqiyos. Chunki o'rta asrlargacha mavjud bo'lgan yulduzlar jadvalining sifati, ya'ni aniqligi, o'sha zamon astronomlarini qoniqtirmas edi. Shu bois, osmon jismlarini kuzatish uchun Samarqandda Mirzo Ulug'bek boshchiligida rasadxona bunyod etish va uni jihozlash ishlari amalga oshirilgan.

Ma'lumki, rasadxona 1424-1429 yillarda ko'rilgan va uni barpo etish rejasi bo'lajak alloma Mirzo Ulug'bekda bolalik chogidayoq tug'ilgan edi. Chunki olim yoshligida Tehron yonidagi Marog'a observatoriyasini ko'rib, havas bilan «men ham shundayni quraman», deb ahd qilgan ekan. Ulug'bekning yoshi 26-27 larga yetganda u olimlar bilan yaqindan tanishgan va ular bilan ko'p suhbatlar ko'rgan. 1420-yillarga kelib uning atrofida 60-70 tacha matematik va astronom olimlar to'plangandi. Ulug'bek ko'rdigan rasadxonaning asosiy qismi radiusini 40,2 metrdan iborat kvadrant tashkil etgan va unda astronomik o'lchashlarni amalga oshirish uchun bir qator boshqa asbob-uskunalar ham o'rnatilgan.

Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand gullab-yashnadi. Uning farmoyishi bilan 1417-yilda Buxoroda, 1420-yilda Samarqandda va 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar barpo etildi. Marv shahrida xayriya muassasalari qurildi. Bibixonim masjid, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda ansambli qurilishlari nihoyasiga yetkazildi. Shuningdek, Ulug'bek karvonsaroy, tim, chorsu, hammom kabi talay jamoat binolari ham barpo ettirgan. Samarqanddagi XV asr me'morchiligining nodir namunalaridan biri Ulug'bek rasadxonasidir. Bu inshoot Ulug'bek farmoyishi bilan 1424-1429-yillarda Ko'hak tepaligida bunyod etilgan.

Rasadxona binosi uch qavatli binodan iborat bo'lgan. Mirzo Ulug'bek o'zi bunyod ettirgan rasadxona va ilm-ma'rifat markaziga turli sohalaridagi 100 dan ortiq ilm ahlini to'plab, keng jabhada ilmiy kuzatish ishlarini olib borgan. Bular Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Mavlono Ahmad, Muhammad Qavofiy, Abul Ali Birjondiy, Mirim Chalabiy, Muyiniddin Koshiy kabi o'z zamonasining zabardast olimlari edi. Afsuski, rasadxona binosi Ulug'bek vafotidan keyin qarovsiz qolib, asta-sekin yemirila boshlagan va XVII asrning oxiriga kelib, ustki qismi butunlay buzilgan. Inshootning yer ostidagi qismi esa tuproq ostida qolib, ko'milib ketgan. Rus arxeolog olimi V.Vyatkinning (xalq orasida Vosi aka nomini olgan) 1908 va 1914 yillardagi Samarqandda olib borgan arxeologik izlanishlari natijasida Ulug'bek rasadxonasi qoldiqlari joyi aniqlanib, keyinchalik uni o'rganish ishlarida davom ettirilgan.

Mirzo Ulug'bek Samarqandda rasadxona zamirida «Ulug'bek akademiyasi»ga asos solgan va bu yerda olib borilgan ilmiy kuzatishlari natijasida «Ziji jadidi Ko'ragoniy» («Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali») va «To'rt ulus tarixi» kabi mashhur asarlari yaratilgan. Tarixchi olim Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, «Ulug'bek geometriya borasida Evklidga, astronomiya sohasida esa Ptolomeyga o'xshardi».

«Ziji jadidi Ko'ragoniy» asarida 1018 ta harakatlanmaydigan yo'lduzning koordinatlari hayron qolarli darajadagi aniqlikda ko'rsatib

berilgan. Mutaxassislarining tan olishicha, ushbu yo'lduzlar jadvali grek olimlaridan miloddan avvalgi II asrda yashagan Gipparx va milodiy I-II asrlarda ijod qilgan Ptolomey tuzgan jadvallardan keyingi davrda yaratilgan eng aniq astronomik manba hisoblanadi. Otasi Shohrux Mirzo o'limidan keyin Ulug'bek Balxga yurish qildi, chunki Mirzo Alavuddavla ibn Boysunqur Mirzo Hirotidagi Temuriylar hukmdorligiga da'vogarlik qilgan edi. Murg'obda bo'lib o'tgan ushbu to'qnashuvda Ulug'bek g'olib bo'lib Hirot tomon harakat qildi, ammo Alavuddavlaning akasi Mirzo Abul Qosim Babur bilan bo'lgan to'qnashuvda mag'lubiyatga uchrashib, Balxga qaytib kelgach o'z o'g'li Abdullatifni fitnasi tufayli 1449-yilda oktyabrning 27-sanasida, ya'ni 55 yoshida Samarqand yaqinida o'ldirildi[2]. Ulug'bekning yaqinlaridan

biri Abdulloh, uni Samarqandning Amir Temur maqbarasi ziyoratgohida keltirgan. 1830-yilda osmon yulduzshunoslari Johann Heinrich von Mädler oyda bor bo'lgan kraterlarning birini Ulug'bek nomiga musammo qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Samarqand – Mirzo Ulug'bek rasadxonasi. Syyoh. Com internet ma'lumotlari
2. Mirzo Ulug'bek – Vikipediya
3. “O'zbekiton tarixi” I-qism A. Sagdullayev
4. “Ma'naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobidan olindi.
5. Mirzo Ulug'bek. “To'rt ulus tarixi”. B. Ahmedovning kirish so'zi, izohlari va tahriri ostida, forschadan B. Ahmedov, N. Norqulov, M. Hasanovlar tarjimasini.
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mirzo_Ulug%CA%BBbek#
7. Khallokova, M. E. (2021). CRITERIA FOR NON-EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION. World Bulletin of Social Sciences, 5, 52-55.
8. Damirovich, M. R., Kholikulovna, M. E., & Ibragimovna, A. S. (2022). THE USE OF INNOVATIVE TECHNIQUES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. Ijodkor o'qituvchi, 2(19), 483-488.
9. Damirovich, M. R., & Ibragimovich, T. I. (2022). SATTAROVICH AU THE ROLE OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN PROMOTING THE IDEAS OF RELIGIOUS TOLERANCE AND INTERNATIONAL HEALTH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10, 1.
10. Дехканбаева, М. Н., Накибов, К., & Мустаев, Р. (2019). ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ОПУСТЫНИВАНИЯ. Экономика и социум, (11), 939-942
11. Мустаев, Р. Д., & Абдуллаев, С. А. (2020). АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИИЛАР ДАВРИДА АХЛОКИЙ-ЭСТЕТИК ГОЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАИШИ. Интернаука, (24-3), 23-24.